

20-Fevral, 2026-yil

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA BRONZA DAVRIDA SHAHAR MUDOFAA TIZIMINING RIVOJLANISHI

G‘affarov Maqsadbek Qadamboyevich

Osiyo xalqaro universiteti Xorazm filiali

e-mail: gaffarovmaqsadbek0@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bronza davrida O‘zbekiston hududida shaharlar mudofaa tizimining rivoji, mudofaa inshootlari: turlari, tuzilishi, ahamiyati haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mudofaa inshootlari, shaharlar, qurol-yarog‘lar, xom g‘isht, darvoza, pandus, O‘rta Osiyo, Baqtriya, Marg‘iyona, Nomozgoh madaniyati, Jarqo‘ton, Sopollitepa, Erkqal‘a, Uzunqir, Afrosiyob, Yerqo‘rg‘on, Kampirtepa.

Аннотация: В статье дано подробное описание развития системы городской обороны Узбекистана в бронзовом веке, а также оборонительных сооружений: их типов, строения и значения.

Ключевые слова: Оборонительные сооружения, города, оружие, сырцовый кирпич, ворота, пандус, Средняя Азия, Бактрия, Маргиана, Намазгохская культура, Жаркутан, Сополлитепа, Ерккала, Узункыр, Афросиаб, Еркурган, Кампыртепа.

Abstract: The article provides a detailed description of the development of the urban defense system in Uzbekistan during the Bronze Age, as well as defensive structures: types, structure, and significance.

Keywords: Defense structures, cities, weapons, mud brick, gate, ramp, Central Asia, Bactria, Margiana, Namazgoh culture, Jarqutan, Sopollitepa, Erkkala, Uzunkyr, Afrosiyob, Yerkurgan, Khampirtepa.

KIRISH


Vatanimiz hududida shaharlar va davlatlarni, aholi yashaydigan manzilgohlarni himoya qilish maqsadida mudofaa inshootlari - fortifikatsiyalar qurish an‘anasi juda qadimdan shakllanib, rivojlanib kelgan. Mutaxassislar fikricha, O‘rta Osiyodagi eng qadimgi mudofaa inshootlari eneolit davridayoq, ya‘ni mil.avv. IV-III ming yilliklardayoq paydo bo‘la boshlagan. Turkmaniston janubida bu davrda shakllangan Nomozgoh madaniyatiga mansub manzilgohlarning mudofaa devorlari bilan o‘rab olinganligi shundan dalolat beradi⁴.

Arxeologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, mudofaa inshootlarini barpo etish an‘anasi bronza davriga borib ancha keng yoyildi. Mintaqaning eng qadimgi sivilizatsiya o‘choqlaridan biri bo‘lgan Baqtriya va Marg‘iyonada yashagan aholi rivojlangan bronza davridan boshlab mustahkam devorlar bilan o‘rab olingan saroy va ibodxonalar barpo eta

⁴ Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.: 1972. – С. 430-450.

20-Fevral, 2026-yil

boshlagan. Bu yerda saqlanib qolgan qabrlarda kundalik hayot uchun zarur bo‘lgan narsalar va hunarmandchilik buyumlari ko‘p bo‘lgan, ammo, qurol-yarog‘lar juda oz miqdorda bo‘lib, qabrlarda jangchilarning dafn qilinganligidan dalolat beruvchi hech qanday belgi aniqlanmagan. Biroq, Baqtriyadagi o‘troq aholi manzillari ko‘p hollarda tashqi hujumlarga duchor bo‘lib turgan. Xom g‘ishtdan qurilgan mudofaa devorlari aholi manzillarini ana shunday hujumlardan saqlash uchun borpo etilganligidan dalolat beradi.



Ushbu devorlar yarim aylana, to‘g‘ri burchakli hamda minoralar, darvozalarga ega bo‘lgan mudofaa tizimi edi. Bu devorlar garchi mudofaa nuqtai-nazaridan unchalik mustahkam bo‘lmay, ko‘proq paxsadan qilingan to‘siqdek ko‘rinsada, ular aholining xavfsizligini ta‘minlash uchun aniq maqsadda, rejali asosda qurilganligini qayd etib o‘tish lozim. Bunday qo‘rg‘onlar mudofaa inshootlarining ilk elementlari juda qadim davrlardayoq yuzaga kelganligini bildiradi.

Asosiy qism. Baqtriyaning eng qadimgi markazi esa tarxi tuxumsimon shaklida, maydoni 120 gektarga yaqin, juda baquvvat istehkomlar va xandaq bilan o‘rab olingan. Baqtriya – marg‘iyonaliklar manzillarining mudofaa tizimlaridagi binolarning me‘moriy xususiyatlari O‘rta Sharq va Hindiston mamlakatlaridagi mudofaa inshootlariga juda o‘xshash. Bu va boshqa ma‘lumotlar ushbu hududlar o‘rtasida o‘sha davrdayoq yaqin madaniy aloqalar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi⁵.

O‘zbekiston hududida mudofaa tizimining rivoji bronza davridan boshlandi. Masalan,

⁵ Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. –Тошкент: Академия, 2008. – В. 343-356.

20-Fevral, 2026-yil

O‘zbekistonning janubida joylashgan Jarqo‘ton va Sopollitepa yodgorliklari shular jumlasidandir. Sopollitepaning umumiy maydoni 4 gektar, istehkomli qismi 1 gektar bo‘lib, tarxi kvadrat shaklda bo‘lgan istehkom devor bilan o‘rab olingan, devorning qalinligi esa 1,8-2 metr gacha yetgan. Surxon vohasidagi uncha katta bo‘lmagan manzilgoh - Sopollitepa yodgorligini o‘rgangan arxeologlar, bu yerda murakkab fortifikatsiya tizimiga duch kelishdi. Hajmi 100x100 metr bo‘lgan to‘rtburchak shakldagi bu yodgorlik uch qatorli mudofaa devori bilan o‘rab olingan⁶. Bu mudofaa tizimining ahamiyatli jihati shundaki, dastabki ikki qator devori o‘ziga xos labirintlar - tuzoqlar vazifasini ham bajargan boshi berk ko‘chalarga ega bo‘lgan. Tashqi mudofaa devori 8 ta darvozaga ega bo‘lib, ichki mudofaa devorlarining darvozalari faqat bittadan qilib qurilgan. Bu qal‘aga hujum qilayotgan dushman kuchlarini chalg‘itish uchun qilinganligini mutaxassislar alohida qayd etib o‘tishadi. Tashqi devor darvozalaridan faqat bittasida qal‘a ichiga olib boruvchi yo‘l bo‘lib, qolgan yettitasidan tashqi va o‘rta mudofaa devori orasida joylashgan labirint shakldagi murakkab yo‘laklarga kirishgan. Bu yerdan esa dushman kuchlarini tuzoqqa tushirish va qirib tashlash uchun foydalanilgan.

Qadimgi O‘zbekistonda qal‘a inshootlarining keyingi rivojlanishi Chust madaniyati yodgorliklarida (mil. avv. XII-VIII asrlar) namoyon bo‘ladi. So‘nggi bronza va ilk temir davridan boshlab qurilgan qal‘alalar keyingi davrlarda har tomonlama rivojlangan mudofaa inshootlarining yuzaga kelishi uchun qulay sharoit yaratgan⁷.

Mudofaa istehkomlarining harbiy san‘atning murakkab elementlari sifatida qaror topishi va keng tarqalishi taxminan mil. avv. I ming yillik o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Aynan shu davrda muntazam joylashgan burjlari, murakkab peshdarvoza inshootlari, ko‘p sonli shinaklari bo‘lgan istehkomlar barpo etila boshlandi. Shu davrda madaniy-tarixiy viloyatlarning yirik markazlari, yirik qishloq va shaharlar yuzaga keldi. Masalan, Marg‘iyonaning poytaxti Marvning markazida 15 metrli sun‘iy platforma ustidagi baquvvat istehkom Erkqal‘a (12 ga) devori bilan aylana qilib o‘rab olingan⁸.

O‘zbekistondagi qadimgi shaharlar - Uzunqir, Afrosiyob, Yerqo‘rg‘on va boshqalar mustahkam mudofaa devorlari bilan himoyalangan edi. Xususan, Uzunqirdagi mustahkam burjlar va jangovor shinaklarga ega bo‘lgan mudofaa devori tuzilishi Mesopotamiyadagi qadimgi shaharlar mudofaa tizimiga o‘xshab ketishini mutaxassislar alohida qayd etib o‘tishgan. Ahamoniylar davriga oid manzilgohlardan biri bo‘lgan Talashkantepada (mil.avv. VI-IV asrlar) ham himoya inshootlarining yangi bir turini ko‘rishimiz mumkin. O‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lgan, ya‘ni aylana shakldagi bu qal‘a mudofaa devori bilan o‘ralgan bo‘lib, kamondan o‘q otishga mo‘ljallangan ikki qatorli shinaklarga - maxsus teshiklarga ega bo‘lgan.

Davrlar o‘tishi bilan qurol-yarog‘lar xususan qal‘alarni ishg‘ol etishga mo‘ljallangan qurollar - katapultalar, manjanaqlar va boshqalar paydo bo‘ldi. Bu himoya devorlari qurish ishiga ma‘lum o‘zgartirishlar kiritilishiga olib keldi. Endilikda himoya devorlari ancha qalin

⁶ Батафсил қаранг: Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973.

⁷ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. (Қадимги даврдан ҳозиргача). – Тошкент: Шарқ, 2012. – Б. 30.

⁸ Усманова З. Эрк кала // ТЮТАКЭ. Т. XV. – Ашгабад: Ылым, 1963.

20-Fevral, 2026-yil

bo‘lib, uni suv to‘ldirilgan chuqur xandaq bilan o‘rab olish boshlandi. Devorlarning burchak qismida yoki butun devor bo‘ylab ma‘lum masofada mustahkam burjlar barpo etila boshladi. Devorlarda hamda burjlarda bir yoki ikki qator qilib o‘q-yoy otish uchun teshiklar qilingan. Burj turli shaklda: doira, to‘rtburchak, yarim aylanasi shakllarda qurilgan. Qal’a devorlaridagi eng himoyasiz joy darvoza bo‘lgan. Shuning uchun ham kirish joylari murakkab darvoza oldi tartibi bilan mustahkamlangan. Bu narsa, ayniqsa Xorazmda keng tarqalgan. Shuningdek, boshqa ko‘p himoya ishlari amalga oshirilgan. Masalan, qal’a devorlari platforma ustida qurilgan. Natijada devor ham, kirish joyi ham juda yuqorida joylashgan. Unga olib chiquvchi yo‘l - pandus tor ishlangan bo‘lib, dushmanlar bu yerdan faqat bir yoki ikki qator bo‘lib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu esa hujum qilayotganlarning qal’aga kirishini qiyinlashtirardi. Shuningdek, pandus shunday qurilganki, darvoza tomon borayotgan yov, qal’a himoyasiga qilich ko‘targan tomoni, ya’ni ochiq tomoni bilan bo‘lib turgan. Ikkinchi qo‘lidagi qalqon bilan o‘zini to‘sishtirish juda noqulay bo‘lgan. Shaharlar mudofaa tizimini barpo etishda atrof-muhit tabiiy sharoitdan foydalanishga katta e’tibor berishardi. Xususan, ko‘pgina shaharlar mudofaa tizimida daryolar o‘zanidan ham samarali foydalanilgan. Buni biz qadimgi Novtaka (Uzunqir), Termiz va boshqa shaharlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Qadimgi mudofaa inshootlarining chegaralari sifatida tabiiy to‘siqlar - daryolar, kanallar, tepaliklar, tog‘larning tik yonbag‘irlaridan unumli foydalanilgan. Masalan, Afrosiyob ko‘hna devorlari juda tik bo‘lib, bir qismi Siyob ustidagi jar yoqasida joylashgan baland yonbag‘ir cheti bo‘ylab ko‘tarilgan. Devor yonbag‘irining qadimgi chekkasi bo‘ylab ketgan va manzilgohning janub tomonida qal’a devoriga extiyoj bo‘lmagan.

Surxon vohasida joylashgan Kampirtepa qal’asini qurishda ham joy relefidan unumli foydalanilgan, tepaliklar, jarliklar hamda soyliklar qal’a devorlari uchun yaxshi moslashtirilgan.

Mil. avv. IV-II asrlarda Buxoroda ham jarliklar va botqoq joylardan mudofaa maqsadlarida unumli foydalanilgan⁹.

Qadimgi Baqtriya, Marg‘iyona, Sug‘diyona, Parfiya, Xorazm, Farg‘ona, Choch, Sirdaryoning quyi oqimidagi yirik va kichik shaharlar, qo‘rg‘onlarda qurilgan ilk mudofaa devorlari paxsadan va xom g‘ishtdan barpo etilgan bo‘lib, yarim doira shaklidagi yoki to‘g‘ri burchakli minoralar bilan mustahkamlangan.

Dastlabki vaqtlarda mudofaa devorlari va minoralar u qadar mustahkam bo‘lmay, ularning poydevori ham ulkan va keng emas edi. Keyinchalik, devorlarni vayron qiladigan mashinalarning paydo bo‘lishi jumladan, grek-makedoniyaliklarning hujumlari, qamal qilish texnikasining rivojlanishi sababli istehkom va minoralar metinday mustahkam, devorlar qalin qilib qurila boshlandi. O‘rta Osiyoga makedoniyalik Aleksandrning yurishlari vaqtida kirib kelgan ana shunday yangiliklardan biri qal’a to‘siq devorlarining barpo etilishi bo‘ldi.

⁹ Мухамеджанов А.Р., Мирзахмедов Д.К., Адылов Ш.Т. К изучению исторических типографии и фортификации Бухары // ИМКУ, вып. 20. - Ташкент: Фан, 1986. - С. 110.

20-Fevral, 2026-yil

Devorlarda ko‘pincha ikki qatordan iborat o‘q otish yo‘lagi - galereyalar qilingan. Ularga eng yaxshi merganlar joylashib, tuynuklardan dushmanni o‘qqa tutganlar. Bu tuynuklar shunday joylashgan ediki, otishma vaqtida devorning tashqi tomonida o‘q yetmaydigan maydon juda kam qolardi. Tuynuklar kamon o‘qi shaklida qilingan bo‘lib, ular tashqari tomonga suyri qilib ochilgan.

Darvozalarni himoya qilishga alohida e‘tibor berilgan, ular oldinga chiqib turgan fortlar bilan yon tomondan muhofaza qilingan. Darvozalarning kirish joyiga ko‘pincha labirintlar bilan tepasida tosh otuvchi mashinalar o‘rnatish uchun maydonchalar qilingan. Mashinalardan uloqtirish uchun sopoldan yumaloq qilib yasalgan yadrolar (ularning og‘irligi 1 kg dan 20 kg gacha, hatto, undan ham ortiqroq bo‘lgan) terib qo‘yilgan. Darvoza oldidagi maydonga va devor ostiga sopoldan maxsus yasalgan piramidachalar sochilgan. Ularning uchi har doim tepaga qarab turgan. Bu otliqlarning va fillarning devorga yaqinlashib kelishiga halaqit berishga mo‘ljallangan. Keyinchalik, ilk o‘rta asrlarda ularning o‘rniga to‘rtta patlitomir piramidachalar (ular «sarimsoq» deb atalgan) qo‘llanila boshlandi.

Bu davrda tosh otish uskunalaridan ham qamal qilish, ham himoyalashda foydalanganlar. Qal’a devorlaridagi maydonchalarda turli kattalikdagi yadrolarning turlanganligi shundan dalolat beradi. Bunday tosh otish uskunasi hayvonlarning payidan eshilgan arqonga ega bo‘lib, rom shaklida yasalgan. Uning ichiga esa, bir uchiga posongi bog‘langan richag o‘rnatilgan. Uskuna ishga solinganda bo‘shagan richag og‘irligi 26 kg gacha bo‘lgan yadroni katta kuch bilan irg‘itgan. «Chayon» uskunasi kichikroq kalibrli yadrolarni otgan. Bunga o‘xshash tosh otuvchi mashinalarni qal’ani qamal qilayotganlar ham ishlatgan.

Tosh otish uskunalaridan Baqtriyada, Parfiyada va boshqa viloyatlarda keng foydalanilgan. Sug‘dda ular ilk o‘rta asrlar davridan boshlab «manjik» deb atalgan. Osilma harakat qiluvchi mashina - palaxmonlar yadrolar otish uchun ham, o‘q otish uchun ham mo‘ljallangan¹⁰.

XULOSA

Shu tariqa O‘rta Osiyoda, xususan, O‘zbekiston hududida bronza davridan boshlab manzilgohlar mudofaa devorlari bilan o‘rala boshladi. Davrlar o‘tishi bilan mudofaa inshootlari turi kengayib, takomillashib bordi. Muhim tranzit aloqa yo‘llari bo‘yida, kechuvlarda maxsus qo‘rg‘onlar, soqchi minoralar barpo etila boshlandi. Jamiyat taraqqiy etib borishi hamda urushlar ko‘lamiga qarab mudofaa tizimi ham bosqichma-bosqich murakkablashib bordi. O‘rta Osiyodagi qadimgi shaharlarning eng muhim tarkibiy elementlaridan biri ham fortifikatsiya tizimining mavjudligida ekanligini hisobga olsak, mudofaa masalasi jamiyat hayotida katta o‘rin tutganligini ko‘rishimiz mumkin.

¹⁰ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. (Қадимги даврдан ҳозиргача). – Тошкент: Sharq, 2012. – В. 32.

20-Fevral, 2026-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.: 1972. – С. 430-450.
2. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 343-356.
3. Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973.
4. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. (Қадимги даврдан ҳозиргача). - Тошкент: Sharq, 2012. – Б. 30.
5. Усманова З. Эрк кала // ТЮТАКЭ. Т. XV. – Ашгабад: Ылым, 1963.
6. Мухамеджанов А.Р., Мирзахмедов Д.К., Адылов Ш.Т. К изучению исторических типографии и фортификации Бухары // ИМКУ, Вып. 20. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 110.
7. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. (Қадимги даврдан ҳозиргача). – Тошкент: Sharq, 2012. – Б. 32.

Global
Science
Publication